

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

TARIX

Sh.Hakimova	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
I.Bohodirov, B.Jurayev	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari	140
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya	158
S.Istrolova, G.Karimova	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev	
Ogahiy tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik	182
E.Qurbanova	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev	
So'z yasalishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'idosheva	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Порубай	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi	238

O'ZBEKİSTONDA ELEKTROENERGETİKA SANOATINING HUQUQIY-MEYORİY ASOSLARI

ПРАВОВЫЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСНОВЫ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

LEGAL AND REGULATORY FUNDAMENTALS OF THE ELECTRIC POWER INDUSTRY IN UZBEKISTAN

Hakimova Shoira Sag'dullayevna¹

1Hakimova Shoira Sag'dullayevna

– O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.

Annotasiya

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin respublika va uning xalqi manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyati tug'ilди. U xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo'ldi. Bu esa jahon mehnat taqsimotida munosib o'rinni egallashga sharoit yaratdi. Maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng elektroenergetika sanoatini rivojlantirish borasida qabul qilingan qonun, qaror, farmonlar to'grisida ma'lumot berilgan. Elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari ochib berildi.

Аннотация

После обретения независимости Узбекистан имеет возможность проводить самостоятельную социально-экономическую политику в интересах республики и ее народа. Он стал равноправным субъектом международного права. Это позволило ей занять достойное место в мировом разделении труда. В статье представлена информация о законах, указах и постановлениях, принятых после обретения независимости Узбекистаном по развитию электроэнергетики. Раскрыта нормативно-правовая база электроэнергетики.

Abstract

After gaining independence, Uzbekistan has the opportunity to pursue an independent socio-economic policy in the interests of the republic and its people. It has become an equal subject of international law. This has allowed it to take its rightful place in the world division of labor. The article provides information on the laws, decrees and decrees adopted after the independence of Uzbekistan on the development of the power industry. The legal and regulatory framework of the power industry has been revealed.

Kalit so'zlar. Elektr, energiya, energetika tizimi, sanoat, qonun, qaror, farmon, "O'zbekenergo".

Ключевые слова. Электроэнергетика, энергетика, энергосистема, промышленность, закон, постановление, постановление, Узбекэнерго.

Keywords. Electricity, energy, energy system, industry, law, decision, decree, Uzbekenergo.

KIRISH Islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi. Shunday yo'nalishlardan biri – O'zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalari tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish edi. Ana shu yo'nalish doirasida "Yer osti boyliklari to'g'risida" gi (1993) va boshqa tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qonunlar qabul qilindi. Qonunlar qabul qilinishi natijasida mamlakat hududida joylashgan energetika tizimi, tabiiy va mineral resurslar, yaratilgan ishlab chiqarish quvvati O'zbekiston xalqining ajralmas, mutloq mulkiga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sanoatning barcha tarmoqlari qatori elektroenergetika sanoatini rivojlantirish borasida ham bir qancha qonun, qaror, farmonlar qabul qilindi. Bu qonun, qaror, farmonlar asosan "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami"da, "Xalq so'zi" gazetasida e'lon qilindi. Shuningdek, J.T.Xolmo'minov, O.X.Narzullayevlarning "Muqobil energiya manbalarini huquqiy tartibga solish" nomli risolasida, D.Alidjanov va U. Axmadaliyevlarning "O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikeni rivojlantirishning huquqiy asoslari" nomli maqolalarida O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslariiga to'xtalib o'tilgan. Ushbu maqolani yozishda tarixiy metodlar hisoblangan tarixiylik, haqqoniylilik, aniqlik, tarixiy manbalarga asoslanish, tizimlilik, qiyosiy tahlil kabi tamoyillarga tayanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA 1992 yil 14 fevraldagagi "Mustaqil davlatlar hamdo'stligi energetikasida davlatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid bitim" qoidalariiga ko'ra, elektr energetikasining mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy tizimidagi alohida o'rni, ishtirokchi davlatlarning o'zaro parallel ravishdagi energetik faoliyati ustuvorligi, energiya bilan ta'minlashga oid muammolarni ijobjiy hal qilishdagi o'zaro manfaatdorlikning mavjudligi va energetik xavfsizlik, bu borada atrof-muhit muhofazasining muhimligi tan olingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 28 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida kichik gidroenergetikani rivojlantirish to'g'risida"gi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida kichik gidroenergetikani rivojlantirish dasturi" O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani davlat tomonidan qullab-quvvatlashning amaldagi dastlabki ifodasi hisoblanadi.

1997 yil 25 aprelda milliy energetika resurslari saqlanishini, energiyadan va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan umumiyluq huquqiy asoslarni shakllantirish maqsadida "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi[15]. Ushbu qonun iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, energetikani rivojlantirish hamda faoliyat yuritishi uchun asosiy hujjat hisoblanadi. Qonun energiyadan oqilona foydalanishning davlat boshqaruvi asoslarini, energiyadan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini, milliy energetika resurslarini tejash va mavjud ishlab chiqarish salohiyati, energetikadan samarali foydalanishni ta'minlaydigan umumiyluq-huquqiy asosni belgilab berdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi soha taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi[1, 58-59 b].

- Qonunning joriy etilishi quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- Energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishda undan samarali hamda ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash;

- Neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ko'mir va boshqa yoqilg'i turlarini qazib olish hamda ishlab chiqarishning energiyani tejaydigan va arzon texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tatbiq etishni rag'batlantirish;

- Energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish miqdori hamda sifatini o'lchash, hisobga olish ishonchiligi va birligini ta'minlash;

- Energiyani samarali ishlab chiqarish va iste'mol qilish, uning sifati, energetika uskanalari, energiya bilan ta'minlaydigan hamda energiya iste'mol qiladigan tizimlarning texnik holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

Bundan tashqari, energetika sohasida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, energetika tarmoqlari korxonalarini boshqarishni takomillashtirish va ularning ish samaradorligini oshirish hamda shu asosda mamlakat energetika tizimining barqaror ishlashini ta'minlash, iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 2001 yil 22-fevralda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning "O'zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida" [7] gi PF-2812-sonli Farmoni chiqarildi. Ushbu Farmon tizimni rivojlantirishning quyidagi muhim yo'nalishlarini belgilab berdi;

- energetika tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish tadbirlarini izchil amalga oshirish, davlat tomonidan tartibga solish darajasini pasaytirish, elektr energiyasini sotish sohasida raqobat muhitini yaratish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning elektr uzatish liniyalariga bog'lanishlari uchun teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish;

- energetika tarmog'ining yirik korxonalari – issiqlik elektr stansiyalari, markazlashtirilgan issiqlik-elektr qurilmalari, elektr tarmoqlari korxonalari va boshqalarni bosqichma-bosqich aksiyalashtirish;

- ijtimoiy infratuzilma obyektlarini, loyihalash, qurilish-montaj va tuzatish ishlarini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlarni jadal sur'atlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ular negizida mulkchilikning nodavlat shakllaridagi korxonalar, shu jumladan xususiy korxonalar tashkil etish;

- energetika korxonalarini aksiyalashtirish, ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish jarayonlariga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish;

- elektr ishlab chiqarish, uni uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv tizimiga va xo'jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;

TARIX

- energetika quvvatlari va ko'mir sanoatining o'zaro bog'liq va mutanosib rivojlanishini ta'minlash[9].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining, 2001 yil 22 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida" gi, 2812-sон PK va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 fevraldag'i 93-сон "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Energetika va elektrlashtirish vazirligi tugatilib va uning tarkibiy bo'linmalari negizida ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etilgan[4, 3 b.].

Uning asosiy vazifalari sirasiga respublika iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash, respublika energetika tizimi ish rejimlarini boshqarish va muvofiqlashtirish, ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar asosida, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hisobiga rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish kabi qator muhim masalalar kiritildi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarishni litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 oktabrda qabul qilingan 469-qarori bilan tasdiqlangan "Yagona energetika tizimiga ulanadigan statsionar elektr stansiyalarda elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash to'g'risidagi Nizom"ga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 27 yanvardagi 32-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish" va "Issiqlik energiyasidan foydalanish" Qoidalari[9] bilan tartibga solinadi.

I.A.Karimovning 2003 yil 9 dekabrdagi PF-3358-son Farmoniga muvofiq Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi ("O'zdavenergonazorat" inspeksiyasi)ga aylantirildi.

Bundan tashqari mamlakatimizda, elektr energiyasini ishlab chiqarishni litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 oktabrda qabul kilingan 469-qarori bilan tasdiqlangan "Yagona energetika tizimiga ulanadigan statsionar elektr stansiyalarda elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash to'g'risidagi Nizom" [8] ga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdag'i "Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligini Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasiga aylantirish to'g'risida"gi 96-son qarori, shuningdek, 2010 yil 17 fevraldag'i 23-sonli "Elektr energetikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organ bo'lib hisoblanadi[6, 67 b.].

"O'zbekenergo" DAK tizimida 53 ta korxona va tashkilot, shulardan 39 ta ochiq aksiyadorlik jamiyati, 11 ta unitar korxona hamda 2 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat va kompaniyaning "Energosotish" filiali faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, 10 ta issiqlik elektr stansiyasi, 6 ta gidro elektr stansiyasi, 5 ta magistral elektr tarmoqlari mavjud bo'lgan[2,2].

2014 yilning o'zida "O'zbekenergo" DAK tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining hajmi – 55,4 mlrd. kVt soat bo'lib, shundan gidro elektr stansiyalari orqali – 5,1 mlrd. kVt soat yoki umumiyligi quvvatning 9 foiz, issiqlik elektr stansiyalari orqali esa 49,3 mlrd. kVt soat yoki umumiyligi quvvatning 89 foiz hamda vazirlik va idoralarning blokstansiyalari orqali 2 foiz elektroenergiya ishlab chiqarilgan[4,4]. Respublikamiz iste'molchilariga 43,2 mlrd. kVt soat, jumladan, aholiga – 10,2 mlrd. kVt soat elektr energiyasi yetkazilib berilgan. Jami iste'molchilar soni 5,9 million nafarni tashkil qilgan [16].

Respublikada elektroenergetika sanoati taraqqiyotini yanada yaxshilash hamda elektr energetikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2009 yil 30 avgustda "Elektr energetikasi to'g'risida"[10] O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Qonunda elektr energetikasi tizimining xavfsizligini, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanishni, elektr energetikasi obyektlarini qurish, ishga tushirish va foydalanishdan chiqarish tartibini, elektr energetikasi obyektlaridan foydalanishni tashkil etishi ustidan texnik va texnologik nazoratni amalga oshirishni, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etishni, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarga olib

kelishi mumkin bo'lgan iste'molchi yuridik shaxslarga nisbatan elektr energiyasi iste'molini cheklash kabi muhim masalalar tartibga solingan [6,73].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013 yil 1 martdag'i "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni[5, 1 b.] ham bu borada alohida ahamiyatga molik hujjat sanaladi. Farmondan ko'zda tutilgan maqsad to'plangan tajribani e'tiborga olgan holda va tadqiqotlar hamda tajriba-sanoat ishlannmalarini yuqoriqoq texnik va ilmiy darajada o'tkazishni yanada davom ettirish, jahon tajribasini hisobga olib, yurtimiz sharoitida muqobil energiya manbalaridan foydalanish borasidagi ayrim yechimlarni amalda qo'llash, shuningdek, mazkur soha uchun zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni shu yerda ishlab chiqarishni tashkil qilish choralarini ko'rishga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydag'i 142-son qarori asosida qabul qilingan 2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar Dasturi[11] mamlakatimizda energetika xavfsizligini ta'minlash va muqobil energiya manbalaridan kengroq foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy hujjat hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 oktabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini elektr va gaz tarmoqlariga foydalanishga tayyor holda ularash tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2015 yil 2 noyabrdagi "Elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'molini hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi [12]. Bu farmon va qarorlar O'zbekistonda energetika tizimining rivojlanishiga qaratilganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qarorlarga ko'ra, yaqin kelajakda Respublika miqyosida elektr energiyasidan foydalanishning sifatini bir necha barobarga oshirish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan istiqlol yillarda iqtisodiyotimiz energetika tarmog'ining jadal sur'atlar bilan rivojlantirilishi keyingi yillarga kelib o'z samarasini bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston energiya manbalari bilan nafaqat o'zini o'zi ta'minlaydigan, balki eksport qiladigan davlatga aylandi. Agar o'tgan shu qisqa davr ichida yurtimizda elektr energiyasi iste'molchilarining soni 2,5 millionga, iqtisodiyot tarmoqlarining iste'moli esa 445,6 million kWt. soatga o'sganligini inobatga oladigan bo'lsak, qo'lga kiritilayotgan yutuqlar nechog'lil zavorli ekanligi yaqqolroq namoyon bo'ladi [3, 2 b.].

Ammo shunday bo'lsada, ayni paytda respublika sanoat korxonalarida energiya sarfi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ortiq. Demak, bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish zarurati asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda[14].

Elektr energetika sohasida ilmiy-texnikaviy rivojlanish darajasini tubdan oshirish va zamonaviy yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish, elektr energetika korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashning strategik dasturlari amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, buning uchun zarur bo'lgan zamonaviy ilmiy-tadqiqot va laboratoriya bazalarini shakllantirish maqsadida 2016 yil 13 iyulda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektr energetika sohasida ilmiy-texnikaviy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [13] PQ-2559-sonli qarori qabul qilinadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION) Mustaqillik qo'lga kiritilgach, barcha sohalar qatori energetika sohasida ham jadal islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, sohaning huquqiy asosini yaratishga bog'liq edi. Islohotlar bosqichma bosqich amalga oshirildi. Iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi asosiy, g'oyat muhim strategik qoidalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqildi va uning farmonlari bilan tasdiqlandi.

Shuningdek, jamiyatning samarali hayot faoliyatini ta'minlovchi, mamlakat aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va turmush darajasini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratuvchi elektr energetika sohasining faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlar bunyod etildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Alidjanov D., Axmadaliyev U. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari// O'zbekgidroenergetika. 2021. №2. (Алиджанов Д., Ахмадалиев У. Правовые основы развития возобновляемой энергетики в Узбекистане // Узбекгидроэнергетика.)
2. Muratov N. Energetikaning rivojlanish istiqbollari // "Xalq so'zi" gazetasi. 2014 yil 14-iyul. (Муратов X. Перспективы развития энергетики // Газета «Народное слово»)

TARIX

3. Rahmonov S. Energiya tizimida yangicha yondashuv // "Xalq so'zi" gazetasi. 2015 yil 22-avgust. (Рахмонов С. Новый подход в энергосистеме // Газета «Халқ сүзи»)
4. Taslimov A.D., Rasulov A.N., Usmanov E.G., Rafiqova G.R. Elektr ta'minoti. – Toshkent: Ilm-ziyo. 2016. (Таслимов А.Д., Расулов А.Н., Усманов Э.Г., Рафиқова Г.Р. Источник питания. - Ташкент: Наука)
5. Xolmo'minov J.T., Narzullayev O.X. Muqobil energiya manbalarini huquqiy tartibga solish. Risola. – Toshkent: TDYUU, 2016. (Холмоминов Ж.Т., Нарзуллаев О.Х. Правовое регулирование альтернативных источников энергии. Рисола. - Ташкент: ТДҮУ)
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001 yil., 1-2-son, 47-modda. (Вестник Олий Мажлиса Республики Узбекистан. 2001 г., № 1-2, ст. 47)
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2003 yil 28 oktabr. 469 son. (Собрание законодательства Республики Узбекистан. 28 октября 2003 г. 469)
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005 yil, 3-4- son, 26- modda. (Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2005 г., № 3-4, ст. 26)
9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2009 yil, 30 sentabr O'RQ-225-son. (Собрание законодательства Республики Узбекистан. 30 сентября 2009 г. № ЗРУ-225)
10. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 yil, 22-son, 282- modda. (Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2013 г., № 22, ст. 282)
11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2015 yil. (Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2015)
12. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2016 yil., 29-son, 348- modda. (Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2016, № 29, ст. 348)
13. <http://adolat.uz/2015/07/energetika-resurslaridan-oqilona-foydalanaling>
14. <http://www.Lex.o'z>.
15. <http://www.Uzbekenergo>.

(Taqrizchi: I.Siddiqov – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))